

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MA'NAVIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION YO'LLARI

Allaniyazova Ayshagul Yusupovna

Qaraqolpog'iston Respublikasi Qarao'zak tumani 14-sonli DMTT direktori

Annotatsiya: Maqlada ma'naviy tadbirlarni tashkil etish metodi va texnologiyasi yoritib berilgan bo'lib, asosan bu jarayonlarni maktabgacha ta'lif tashkilotlarida tarbiyachilar tomonidan oila a'zolarini, xususan, ota yoki ona ishtirokida o'tkazsa tarbiyalanuvchining bog'chaga bo'lgan mehri yanada oshgan bo'ladi.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, ma'naviy tarbiya, ma'naviy tadbir, metod.

Annotation: The article describes the method and technology of organizing spiritual events, mainly if these processes are carried out by educators in preschool educational organizations with the participation of family members, in particular, father or mother, the child's love for kindergarten increases even more. will be

Key words: Spirituality, spiritual education, spiritual event, method.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va buniyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" degan hayotbaxsh g'oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Bu borada olib borilayotgan muhim ishlarga qaramasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalardagi yangilanishlar jarayonida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

Xususan, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emas, xalqimiz, ayniqsa yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmayapti, ushbu yo'nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatni institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo'lga qo'yilmagan.

Mavjud muammolarni hal etish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasini va ta'sirchanligini oshirish, ko'lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisini, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish maqsadida uzliksiz ta'lif tizimining boshlang'ich bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lif ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirish muhim vazifa bo'lib turibdi.

Maktabgacha ta'lif tizimida ma'naviy tadbirlarni tashkil etish mahorati ma'naviy tadbirlarni tashkil etishning nazariy, amaliy hamda uslubiy jihatlarini o'rgatadi.

Quyidagilar ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan:

ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va buniyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;

oila, ta'lif tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyilagini ta'minlash;

targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;

el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliy chilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

aholining Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;

madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san’atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma’naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish;

geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o‘rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish.

Mamlakatimizda mustaqillik shamollari esa boshlagan davrdan boshlaboq, olib borilayotgan barcha iqtisodiy, siyosiy jarayonlarning asosida ham ma’naviyma’rifiy, ahloqiy va tarbiyaviy ishlarning hamohangligini kuzatish mumkin. Shu jihatdan olib qaralganda, madaniyat va san’atga aloqador bo‘lgan sohalarda yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, komil inson kabi tushunchalar talqini muhim ijodiy va tashkiliy jarayonlarni qamrab oladiki, unda madaniyat xodimlari, san’at sohasi ustalari zimmasiga katta ma’suliyat yuklanadi. Aholini ma’naviy kamol toptirish, madaniy bilimlarini oshirish, ularni pok va halol yashashga chaqirish, mustahkam e’tiqodga ega bo‘lish kabi xususiyatlarni shakllantirishda tadbirlar tashkilotchilariga alohida bilim, ko‘nikma, mahorat va mehnat talab qilinadi.

Tadbirlarni tashkil etishdan asosiy maqsad - milliy va dunyo madaniyatlarining eng yaxshi namunalarini keng targ‘ib qilish va ommalashtirish, o‘sib kelayotgan avlodni, zamonaviy yoshlarni ma’naviy tarbiyalash, millatiga, tarixiga, insoniyatga bo‘lgan hurmatni uyg‘otish va saqlash, ma’naviy-ma’rifiy islohotlarda faol ishtirot etishdir. Zotan, xalqlarning o‘ziga hosligi va betakrorligini saqlash, tarixan shakllangan qadimiy milliy madaniyatlar, san’at va xalq ijodiyoti, yuz yillar davomida tarkib topgan milliy an’ana va urf-odatlarning o‘zaro yaqinlashuvi va bir-birini boyitishi uchun, dunyoda yashayotgan turli millat va elat vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat muhitini qaror toptirish uchun tadbirlarning ahamiyatini alohida ta’kidlash maqsadga muvofiqdir.

Rejalashtirilgan va o‘tkazilishi lozim bo‘lgan ma’naviy tadbirlarning asosiy vazifasi milliy va dunyo ma’naviyatining eng yaxshi namunalarini keng targ‘ib qilish va ommalashtirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni, zamonaviy yoshlarni ma’naviy tarbiyalash, millatiga, tarixiga, insoniyatga bo‘lgan hurmatni uyg‘otish va saqlash hisoblanadi va bir-birini boyitishi uchun, dunyoda yashayotgan turli millat va elat vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmatni qaror toptirish uchun ma’naviy tadbirlarning ahamiyatini alohida ta’kidlash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ma’naviy tadbirlarda shaxs o‘z insoniy fazilatlarini shakllantira boshlaydi, yashirin, betakror, individual xususiyatlari, qobiliyatlarini kashf etadi, ularni o‘stiradi va rivojlantirib boradi, jamiyat, hayot bilan muloqotga kirishadi. Murakkab ijtimoiy voqelik sifatida bu tadbirlarning o‘ziga xosligi shundaki, u insoniyat avlodlarimg mehnati va bilimlarini o‘ziga singdirib oladi, saqlaydi, doimiy boyitib boradi va ularni kelgusi avlodlarga yetkazib beradi. Mana shunday ulkan ishlarni amalga oshirishda Ma’naviy tadbirlarni maqsadli tashkil etish, uni tarbiyaviy jarayonlarga yo‘naltirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Joylarda o‘tkaziladigan juda ko‘p tadbirlarning saviyasi past darajada o‘tishi tadbir tashkilotchilarining Ma’naviy tadbirlarni tashkil etish asoslarini bilmasliklari, tashkil etishning usul va vositlaridan to‘laqonli foydalanmasliklari, ijodiy hamda tashkiliy ishlarning uyg‘unligiga erisholmaganliklari, sahnalashtirish ishlarni, g‘oyaviy talqin etish masalalarini yaxshi bilmashliklaridadir. O‘zbekiston davlati mamlakatda insonlarning yashash shartsharoitlarini yaxshilash, yoshlarga bilim berish, bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish va buning natijasida jamiyat hayotida faol ishtirot etish, oilasi, kasbi, Vatanini sevish kabi ijobjiy xislatlarni jo qilishga katta e’tibor qaratmoqda. Undan tashqari, Ma’naviy tadbirlar milliy qadriyatlar, an’analalar, urf-odatlar asosida vujudga kelgan bo‘lib, har bir odamni mehr-shavqatli, mehr-oqibatli

bo‘lishiga da’vat etadi, yer yuzida barqarorlik, birdamlik va ahillik tabiatini uyg‘otadi, xalqlarning Ma’naviyatlarini o‘zaro birlashtiradi, boyitadi va eng asosiysi - insonlarning millati, tili va dinidan qat’i nazar, xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Sobiq sho‘rolar davrida Ma’naviyat maskanlarida olib boriladigan ishlarning asosini ko‘ngil ochar dasturlar egallaganligini ochiq aytish mumkin. To‘g‘ri, juda ko‘p Ma’naviy tadbirlar o‘tkazilgan, ammo, bu tabirlarning asosida yotishi lozim bo‘lgan asosiy g‘oya - yoshlar tarbiyasi masalalari o‘ta sust darajada ko‘rilganligi achinarli holdir. Har qanday tadbir ma’lum bir g‘oyaga yo‘naltirilishi, insonlarga o‘zi xohlagan nimanidir olishiga imkon berishi, dam olishi, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishi, tarbiyalanishi, jamiyatga foydasi tegadigan insonga aylanishi, davlat siyosatining mohiyatini anglashi kabi maqsadlar asnosida tashkil etilishi kerak. Inson tarbiyasida, ayniqsa, yoshlar tarbiyasida Ma’naviy tadbirlarning o‘rni muhimdir. Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida va axloq qoidalari asosida tarbiyalash, yosh avlodda hayotga qat’iy ishonch va qarashni, mentalitetimizga yot bo‘lgan zararli ta’sir va oqimlarga qarshi tura olish qobiliyatini rivojlantirish barcha pedagoglar va Ma’naviy - ma’rifiy ishlar mutasaddilarining asosiy ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Shu jihatdan ham Ma’naviy tadbirlarni tashkil etish, uning dramaturgiyasini yaratishda ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan manbalarni qo‘llay olish, unda odob, axloq, jamiyat taraqqiyoti, insonlarni bilimli, ilmi qilish, ma’naviyat bilan qurollantirish, komil insonni tarbivalashga qaratilgan vazifalar dolzarbigini yo‘qotmaydi.

Ma’naviy tadbirlarda qo‘llaniladigan metod va vositalar har qanday tadbirni tashkil etishda metodlardan to‘g‘ri foydalanish katta samara beradi Tashkil etishning usullari, uslublarini aniqlash va uni maqsadli qo‘llash tadbirlarni muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

«Metod» (yunoncha metodos - tadqiqot yoki bilish yo‘li, nazariya, ta’limot) voqeqlikni amaliy yoki nazariy o‘zlashtirish to‘plamidir. Boshqa manbalarda «metod» so‘zi - «bayon qilish», «bajarish usuli» degan ma’noni bildiradi, deb berilgan. Har ikkala ta’rif ham metod so‘zining biron ishni samarali amalga oshirish jarayonida qo‘llanishiga aloqador ekanligini uqtiradi. Ma’naviy tadbirlarni tashkil etishning metodi deyilganda, Ma’naviy tadbirlarning spesifik xususiyatlarini aniqlash, tashkil etish (sahnalashtirish)ning o‘ziga xos usullarini yaratish, tadbir o‘tkazishning o‘rni uchun qulay va tushunarli yo‘nalishlarini aniqlash va ilmiy asoslash usullari tushuniladi. Metod aslida inson amaliy faoliyatining negizida yuzaga kelgan.

Metodlar shu sohalarga tegishli bo‘lgan tushunchalar, ilmiy, amaliy tajribalar asnosida yuzaga keladi. Fan metodining asosiy mazmunini avval amaliyatda sinalgan ilmiy nazariyalar tashkil etadi: har qanday nazariya boshqa nazariyani yaratuvchi yoxud amaliyot mazmunini yoki izchilligini belgilovchi metod vazifasini bajaradi Hozirgi zamon fanlaring metodlari ilmning o‘zi kabi turli-tumandir. Taqqoslash, analiz va sintez kabi tushunchalar umumiylar xarakterga ega bo‘lgan metodlardan hisoblanib, Ma’naviy tadbirlarni tashkil etishda ham qo‘llaniladi. Manbalarda metodologiya deyilganda, avvalo, ilmiy bilish metodologiyasi, ya’ni ilmiy bilish faoliyatining shakllari va metodlari tushuniladi. Fan metodologiyasi ilmiy tadqiqot komponentlari - uning obyekti, analiz mavzui, tadqiqot vazifalari, ularni hal etish uchun zarur bo‘lgan vositalarni ifodalaydi, shuningdek, masalani hal etish jarayonida tasdiqlovchi faoliyatining izchilligi haqida tasavvur hosil qiladi. Masalani qo‘yish, tadqiqot mavzuini va ilmiy nazariyani shakllantirish, shuningdek, olingan natijani uning haqiqiyligi, ya’ni o‘rganilayotgan obyektga muvofiqligi jihatidan tekshirish metodologiyani qo‘llanilishini eng muhim tomoni hisoblanadi. Umuman olganda, metodlar haqidagi masala - o‘qitishda yuqori ta’lim va tarbiyaviy natijalarga erishish uchun qanday olqish kerakligi haqidagi masalalardir.

Ma’rifiy metodlar ma’naviy tadbirlarning asosidir. Ma’rifiy metodlar ham Ma’naviy tadbirlarning asosini tashkil etadi, desak yanglishmaymiz. Chunki, Ma’naviy

tadbirlarning asosiy vazifalaridan biri ommaga yangi axborot va bilim berishdan iboratdir. Bu jarayonda ham pedagogikadagi ma'rifiy metodlardan ijodiy foydalanish katta samara beradi.

Professor M.Bekmurodov o'zining rahbarlik pozitsiyasida bitta g'oyani ilgari suradi. Barcha pedagoglar, Ma'naviyat targ'ibotchilari ilmlи, bilimli va ma'rifikatli bo'lishlari lozimdir, deydi. Buning uchun nima qilish kerak? M.Bekmurodov o'zi rahbarlik qilayotgan kafedra professoro'qituvchilarini kitob o'qish majburiyatini qo'yib, ularga aniq muddat berib, savol-javob kechalarni o'tkazish orqali ma'rifikatli qilish yo'lidan bordilar.

Buning natijasi pedagog kitobni yuzaki emas, kitobning ichiga kirib o'qishga, uning mazmuni va mohiyatini anglab olishga undaydi. Mana shunday usullarni joylarda qo'llash albatta katta samaralar beradi. O'zbekiston davlat san'at va Ma'naviyat institutida muntazam o'tkazilib kelinayotgan turli mavzularga bag'ishlangan lektoriylar ham ma'rifiy tadbirlar turkumiga kirib, undan ma'rifiy metodlardan unumli foydalanib kelinmoqda.

Tadbirlarda keng qo'llanilishi mumkin bo'lган ma'rifiy metodlar - bu bayon etish va namoyish qilishdir. Bayon etish metodining asosiy maqsadi shundan iboratki, u tadbirning g'oyasi, mazmuni, axborot va faktlarini auditoriyaga jonli so'z orqali bayon qilish shaklida yetkazib beradi. Ommaviy tadbirlar tarkibida ko'pincha shunday faktlar va ma'lumotlar borki, ular albatta batafsil tushuntirishni talab qiladi.

Xuddi shunday daqiqalarda bayon etish metodi katta yordam beradi. Bu metod yordamida ma'lumotlarning mohiyati ochiladi, xususiyatlari yoritiladi va to'liq bilim beriladi. Bayon qilish metodi, ayniqsa, og'zaki jurnallarda, tematik kechalarda ko'proq qo'llaniladi. Bugungi kunda texnika taraqqiyoti jadal rivojlanayotgan bir paytda namoyish qilishning turli usullarini qo'llash unchalik katta qiyinchilik tug'dirmaydi. Bu usulning yaqqol misoli sifatida J.Mamatqosimov tomonidan sahnalashtirilgan «Qordagi qizg'aldoq» deb nomlangan badiiy-publisistik kompozitsiyani aytish mumkin. Namoyish qilish metodi tadbir mazmunidagi voqealarning tasvirini ko'rgazmali shaklda auditoriyaga yetkazishga yordam beradi. Har qanday tadbirni tashkil etishda rahbardan juda katta mehnat talab qilinadi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, tashkiliy ishlар ijodiy ishlар bilan bir xil darajada turadi. To'g'ri, ijodiy sharoitlarning ham o'ziga xos ishlash uslublari bor, ammo mana shu ijodiy jarayonni amalga oshinshning tashkiliy tomonlarini hisobga olish muhimdir. Oddiy misol qilib oladigan bo'lsak, bitta musiqiy nomerni sahnaga olib chiqish uchun ham unga bir qancha tashkiliy ishlarni amalga oshirish kerak bo'ladi, masalan, ansambl uchun joy tayyorlash, mikrofon qo'yish, xonanda va musiqachilar uchun liboslar tanlash va h.k. Ma'naviy tadbirlarni uyushtirishning o'ziga xos xususiyatlari faqat uning o'ziga mansub tashkil etish metodlarini talab qiladi. Tashkil qilish metodlari deganda, tadbirni vujudga keltirish uchun qo'llaniladigan usul, uslub va vositalardan foydalanish yo'llari tushuniladi. Qisqa qilib aytganda, bu metodlar ta'sirchan vositalardan foydalanish usullari bilan ko'proq bog'liqdir.

Xulosa qilib aytganda ma'naviy tadbirlar - farzandlarimizni ma'naviy kamol toptirish, madaniy saviyasini shakkantirish, bilimini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, bo'sh vaqtini mazmunli va samarali o'tkazishga qaratilgan ijodiy va tashkiliy jarayondir.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagи "Ma'naviy-ma'rifiy ishlар tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5040-son Qarori.
2. E.Xaitov «Jamiyat ma'naviy yuksalishida innovatsion siyosatning o'rni» Dissertatsiya. Toshkent 2021 yil.